

KUYDIRGI KASALLIGIDA PASSIV IMMUNOTERAPIYA: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA GIPERIMMUN POLIKLONAL ZARDOBLARNING ISTIQBOLLARI

Burxanova N.K.

Ashurov A.A.

Sa'dinov P.O.

Toshkent vaksina va zardoblar ilmiy-tadqiqot instituti

e-mail: burxanovanargiza1@gmail.com

tel: +998915316650

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17994309>

Annotatsiya. Kuydirgi (*Bacillus anthracis*) yuqori o'lim ko'rsatkichiga ega bo'lgan, biologik xavfli infeksiyon kasalliklardan biri hisoblanadi. Kasallikni davolashda antibiotiklar asosiy o'rin tutishiga qaramay, bakteriyaning vegetativ shakli tomonidan ishlab chiqariladigan letal va shish toksinlari mikroorganizmlar yo'q qilingandan so'ng ham patogenezni davom ettiradi. Shu sababli toksinlarni neytrallashtirishga qaratilgan passiv immunoterapiya kuydirgini davolash va oldini olishda muhim qo'shimcha strategiya sifatida qaralmoqda. Ushbu ishda kuydirgida qo'llanilayotgan zamonaviy passiv immunoterapiya vositalari, xususan monoklonal antitanalar va inson plazmasidan olingan immunoglobulinlar tahlil qilindi. Shuningdek, tarixiy va zamonaviy ma'lumotlar asosida ot asosida olingan giperimmun poliklonal zardobning samaradorligi, iqtisodiy va texnologik afzalliklari baholandi.

Kalit so'zlar: kuydirgi, *Bacillus anthracis*, passiv immunoterapiya, giperimmun zardob, himoyalovchi antigen.

Kirish: Kuydirgi (*Bacillus anthracis*) og'ir kechuvchi va yuqori letallikka ega infeksiyon kasallik bo'lib, epidemiologik va biologik xavfsizlik nuqtai nazaridan dolzarb muammo hisoblanadi. Antibiotik terapiya kasallikni davolashda asosiy o'rin tutadi, biroq toksin vositachiligidagi patogenez antibiotiklardan keyin ham davom etishi mumkin. Shu bois passiv immunoterapiyani takomillashtirish dolzarb vazifalardan biridir.

Asosiy qism: Kuydirgi toksinlari himoyalovchi antigen (PA), letal faktor (LF) va shish faktori (EF)dan iborat bo'lib, PA ikkala toksin uchun umumiy subbirlik hisoblanadi. PA ga qarshi antitanalar toksinlarning hujayra ichiga kirishini bloklay, kasallik patogenezini to'xtatadi. Hozirgi kunda raxsibakumab va inson plazmasidan olingan antraks immunoglobulini ingalyatsion kuydirgida antibiotiklar bilan birgalikda qo'llanilmoqda. Biroq ushbu preparatlarning yuqori narxi va ishlab chiqarish murakkabligi ularning keng miqyosda qo'llanilishini cheklaydi.

Tarixiy ma'lumotlar ot asosida olingan poliklonal zardoblarning kuydirgini davolashda samaradorligini ko'rsatadi. Zardob asosida olingan preparatlar past harajat, yuqori antitana titri va soddalashtirilgan ishlab chiqarish texnologiyasi bilan ajralib turadi.

Xulosa.

Kuydirgida passiv immunoterapiya antibiotik davolashni to'ldiruvchi muhim yo'nalish hisoblanadi. Giperimmun poliklonal zardob zamonaviy immunoterapevtik vositalarga nisbatan iqtisodiy va texnologik jihatdan istiqbolli bo'lib, resurslari cheklangan hududlarda amaliy ahamiyatga ega.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. FDA. Approval letter for post-exposure prophylaxis in pediatric patients (levofloxacin). Rockville, MD: FDA; 2008a. [July 23, 2011].
2. WHO. Humans and Animals. World Health Organization; Geneva, Switzerland: 2008. Anthrax.
3. FDA. Approval letter for post-exposure prophylaxis in adults (levofloxacin). Rockville, MD: FDA; 2004. [July 23, 2011].
4. WHO. Humans and Animals. World Health Organization; Geneva, Switzerland: 2008. Anthrax